

Kudratov Akmaljon Ibodillayevich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
akademik litseyi direktori,
psixologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent.
akmaljonkudratov@gmail.com

SHAXS EHTIYOJLARINI MA'NAVY JIHATDAN SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy shaxs ehtiyojlari shakllanishi, uning takomillashtirish o'z ifodasini topgan. Shuningdek, ma'naviy ehtiyojlarning tarkib topishining ilmiy asoslari, shakllantirish omillari, shart-sharoitlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Ehtiyoj, ehtiyoj turlari, moddiy ehtiyoj, ma'naviy ehtiyoj va boshqalar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТНЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ С ДУХОВНОГО АСПЕКТА

Аннотация. В статье описано формирование потребностей современного человека и их совершенствование. Также изучены научные основы, факторы формирования и условия духовных потребностей.

Ключевые слова: Потребность, виды потребности, материальная потребность, духовная потребность, преобразование и др.

PSYCHOLOGICAL PROBLEMS AND SOLUTIONS FOR THE FORMATION OF PERSONAL NEEDS FROM THE SPIRITUAL ASPECT

Annotation. The article describes the formation of the needs of a modern person and its improvement. Also, the scientific bases, formation factors, and conditions of spiritual needs have been studied.

Key words: Need, types of need, material need, spiritual need, etc.

Shaxs ehtiyojlarini ma'naviy jihatdan shakllantirishning Shaxsning ma'naviy tarbiyasi, o'z-o'zini takomillashtirish ijtimoiy munosabatlar, g'oyaviy-tarbiyaviy jarayonning mazmuni va yo'naltirilganligiga bog'liq bo'ladi. Bu jarayonda shaxs qaysi tabaqaga mansubligi bilan aniqlanadi. G'arb mafkurasi sharoitida shaxsga majburan yuklangan ma'naviy tarbiyaning tabiati shaxs irodasini sindirish, o'z-o'zini yo'q qilish, boshqalarga nisbatan nafrat, munofiqlikka yo'naltirilgan edi. O'n to'qqizinchi asr oxirigacha, g'arb psixologlari "Orzular orqasidan quvma, boriga qanoat qil, o'zingni isloh qil, bu esa o'ta muhim ish" aqidasini ilgari surishgan. Bunday yondashuv shaxs ehtiyojlarini qondirishda eng oz miqdordan qanoatlanishga yo'naltirilgan, insonning o'zini esa ijtimoiy yovuzlik va adolatsizlikning sababi deb tan olgan.[1.34-b.]

Zamonaviy ijtimoiy erkinlikka erishish uchun kurashishga, jamoatchilik, optimizm, o'z kuch va salohiyatiga ishonch, mardlik, jasurlik, o'zini qurbon qilish qobiliyati va boshqa zarur sifatlarni tarbiyalashga yo'naltiradi. Shu bilan birga, shaxs psixologiyasida tarbiyaviy ta'sirning, uning shaxs ehtiyojlari shakllanishidagi rolini e'tibordan chetda qoldirmaydi. Shaxsning ma'naviy kamoloti va uning muhim tarkibiy qismlari bo'lmish – o'zini o'zi anglashi, o'zini o'zi nazorat qilishi, o'zini o'zi baholashi va boshqa jihatlar doim ijtimoiy mazmun bilan to'ldirilgan bo'ladi. Faqat o'z baholarini ijtimoiy "meyorlar" va "talablar" bilan taqqoslagandagina inson o'ziga to'g'ri baho bera oladi. Shaxsning o'ziga o'zi to'g'ri baxo berishi tarbiya natijasida shakllanadi va takomillashib boradi.

Shaxs o'zini o'zi ma'naviy tarbiyalashi jamiyatning "maqsadlari" va "vazifalariga" bo'ysunadi. Bu haqida V.A.Suxomlinskiy shunday deb takidlagan edi, "Boshqa odamga g'amxo'rlik qilish o'z-o'zini tarbiyalashning eng yaxshi vositasidir. Boshqa odamga mehribonlik qilish (o'tkazish) istagi qanchalar kuchli bo'lsa, inson o'zida yaxshilik va yomonlikni shunchalar yaxshi va aniq ko'ra oladi, tushunadi, va his qila oladi".

Hozirgi davrda zamonaviy shaxs ehtiyojlarini ma'naviy jihatdan shakllantirishning tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'liqligini tahlili nafaqat psixologiyaga, pedagogikaga oid masala hamdir. O'zini o'zi anglash, axloqiy – ma'naviy tarbiyalashning ijtimoiy jihatini "psixologik, pedagogik, etik va boshqa jihatlaridan yuqoriroq umumlashtirish darajasi bilan ajralib turadi va o'rganilayotgan hodisaning turli – tuman tomonlari (jihatlari) yaxlitligini qamrab olishi bilan farq qiladi". Shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini tarbiyalash ijtimoiy xarakterga ega ekanligi shubhasiz va etarlicha o'rganilmagan ijtimoiy-psixologiyaning muhim muammolaridan hisoblanadi.[2. 72-b.]

Shaxsning muayyan ehtiyojlar tizimi nafaqat tashqi omillar ta'sirida, balki insonga xos ichki omillar: o'zining tanlovlari, munosabatlari va ma'naviy ehtiyojlar rivojlanishida salbiy an'analar bilan kurasha olish qobiliyatlari ta'sirida ham shakllanadi. Shaxsning subyektga aylanishi nafaqat uning hayot jarayoniga shunchaki o'z munosabatini bildirishda, balki "hayotning obyektiv jarayonini o'z hatta-harakalari ta'siri bilan o'zgartira olish sifati va qobiliyatini shakllantirishi" bilan ham baholanadi. XX asr psixologiyasida subyektning asosiy xususiyatlarini ochib berishga urinishlar bo'lgan. Bilish va anglash subyektning shubhasiz mavjudligini belgilovchi muhim jihatlardir. Shu asosida subyekt bilish va anglash bilan cheklanmay, voqelikka ijodiy munosabatda bo'la oladigan, ya'ni borliqni o'rganishga va uni o'zgartirishga qodir moddiy - ongli mavjudot Hisoblandi.

Tadqiqotchi olim- M.S.Kaganning fikriga ko'ra, subyektning faolligi uning birlamchi va muhim xarakteristikasi hisoblanadi. Shu bilan birga bu uni to'laqonli tasvirlaydigan jihatini emasligini ham ta'kidlaydi. Shu boisdan inson faolligining ongli jihatini, uning erkin amalga oshirilishi va shu sababdan hech qachon oldindan bashorat qilib bo'lmazlikni ham aytish joizdir. M.S. Kagan subyektning pirovard natijada e'tiborli jihatini uning universalligida deb hisoblaydi. Tadqiqotchi "subyektning qaysi moduli, ko'rinishi haqida gap ketishidan qat'iy nazar, bu ko'rinishni mazkur individuum, ijtimoiy guruh, ijtimoiy tizim ularni o'zlashtiradi, o'zida rivojlantiradi, ulardan oladi va bunday ko'rinish modul ularga o'z o'zidan xos emas". Demak, faollik, onglilik va boshqalar kabi shaxsning subyekt sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari nafaqat ijtimoiy-psixologik, ma'naviy-tarbiyaviy jarayonlarda, balki uning ehtiyojlarini mustaqil tarbiya qilishda ham namoyon bo'ladi va aks ettiriladi.

Subyekt o'ziga ortiqcha baho bermasligi lozim, chunki u obyektiv ijtimoiy sharoitlardan kelib chiqadi, biroq bu sharoitlar doirasida shaxs hodisalar yo'nalish jarayoniga ta'sir etib o'zgartirishi mumkin. Ushbu qoidaning muhimligi o'z-o'zidan ayon va shaxs ehtiyojlarining shakllanish jarayoniga tegishlidir. Ijtimoiy-psixologiyada nafaqat jamiyat, sinflar va shaxs subyekt sifatida qaraladi balki, Gegelning ta'rifi ko'ra, shaxsni subyekt sifatida qaralishi, ehtiyojlarning shakllanishi va amalga oshirilishida "uning o'zi uchun o'zi bo'lib qolishi" jiddiy (prinsipial) ahamiyatga egadir. Jumladan, XX asrda musiqani qabul qilish sohasida psixolog olimlar o'tkazgan tadqiqot materiallari asosida ruhiy ehtiyojlarni o'rganish shaxs ehtiyojlarining paydo bo'lishi, shakllanishida individ faolligining yuksak rolini namoyish qiladi.[3.254-b.]

Darxaqiqat, shaxsni ushbu jihatda ko'rib chiqish nafaqat u yoki bu odam o'z ehtiyojlarini, balki jamiyatning boshqa a'zolarini ham faol shakllantiruvchi subyekt hisoblanishi, balki o'z navbatida bunday inson boshqa odamlarning, subyektlarning ta'sirini ham his qilishi kabi muhim holatni ham har tomonlama hisobga olishni taqozo etadi. O'z faoliyatida, odam ko'p sonli muammolarga duch keladi. Bu ma'noda, insonning asl mohiyati uning muammolarni echish jarayonida qanaqa usullarni qo'llashida mas'uliyat hissi, jamiyat oldidagi burch hissini namoyish qila olish - olmasligida, yoki aksincha o'zining "meni" qobig'ida yashirinib olish - olmasligida yaqqol namoyon bo'ladi.

Zamonaviy jamiyat sharoitida shaxs o'z ma'naviy ehtiyojlarini o'zgartirishda hayot faoliyatning subyektiga aylanadi. Shaxsning zamonaviy jamiyatda faol xulq atvori muayyan maqsadga yo'naltirilgan ma'naviy-tarbiyaviy ishlar yordamida shakllanadi.

Bunday holatda shaxsni tarbiyalash uning manaviy tarbiyasining yo'naltirilganligini belgilaydi, determinatsiya qiladi, va shaxs ehtiyojlarining etarlicha rivojlanmaganlik darajasi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining uyg'un emasligi (disgarmoniya), individning ehtiyojlarini yuksaltirishga yo'naltirilgan o'z xatti-harakatlariga etarli baho bermasligi holatlari ma'lum darajada ma'naviy-tarbiyaviy ishda yo'l qo'yilgan xatoliklar natijasida vujudga kelishi mumkin.

Biroq shaxsning u yoki bu ehtiyojlari zaruriyatlik mavqeiga darrov ko'tarilmasligini ta'kidlab o'tish lozim. Dastlab, ular obyektiv imkoniyat sifatida mavjud bo'ladi. Ushbu obyektiv imkoniyat shaxs tomonidan anglanib, ularni faoliyatga undaydigan stimulga (rag'batga) aylantira borgan sari, voqelikka aylanadi. Imkoniyatni voqelikka, ideal ehtiyojlarni real ehtiyojlarga aylantirishda shaxsning "psixologik salohiyati", "onglilik darajasi", "aql-idroki", "emotsional-irodaviy holati" va ularning tarbiyalanganlik darajasi muhim rol o'ynaydi. Ideal g'oyani real narsaga aylantirish haqidagi fikr tarix uchun ham o'ta chuqur va muhimdir. Biroq insonning shaxsiy hayotida ham bunday haqiqatning ko'pligini ko'rish mumkin.[4.424-b.]

Darhaqiqat, shaxsning subyekt sifatidagi roli tegishli ehtiyojlarning paydo bo'lishiga obyektiv imkoniyatlar allaqachon etilgan yoki etilayotgan vaqtda o'ziga xos kuch bilan namoyon bo'ladi. Bu erda ehtiyojlar subyekt sifatidagi shaxs yordamida shakllanishi va amalga oshirilishini ta'kidlab o'tish lozim. Shaxsning faoliyati nafaqat uning ehtiyojlari yordamida aniqlanadi, balki ushbu faoliyat jarayonida ehtiyojlarning o'zi o'zgaradi, ehtiyojlarni qondirish predmetlari, usullari va vositalari tanlovi amalga oshiriladi. Shaxs ehtiyojlarining shakllanishi va amalga oshirilishidagi faolligi, tanlovi obyektiv ravishda belgilangan maqsadlar qo'yishda namoyon bo'ladi, biroq ko'p jihatdan voqelik haqidagi bilimlarning chuqurligi va umuman inson zakovatining (ongining) rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. U yoki bu maqsadlarda o'zini obyektlashtirishda, inson o'zini, o'z sifatleri va xislatlarini faoliyat subyekt sifatida rivojlantiradi.

Shuningdek, shaxsning ma'naviy-psixologik salohiyatida uning muhim tarkibiy qismlari bo'lmish "ideal" va "orzu" ham o'ta muhim rol o'ynaydi. Ideallarning rivojlanmaganligi, ularning shakllantirilmaganligi shaxsning o'ziga, va uning o'sish imkoniyatlariga past talablar qo'yishiga olib keladi. Orzu qilish va orzularni hayotda tadbqiq qilish har tomonlama rivojlangan, uyg'unlashgan shaxsning muhim qirrasidir va shu ma'noda –shaxs etukligining dalilidir.

Zamonaviy jamiyatda shaxsning ruhiy salohiyatini muhim tarkibiy qismi sifatida orzu o'ziga xos hayotiy kuch kasb etadi, shaxsga o'z individualligini, ijodiy mohiyatini yanada to'liqroq ochishga imkon beradi. Umuman olganda, orzu shaxs ehtiyojlarining shakllanishi va rivojlanishining noyob vositasi hisoblanadi, chunki shaxsni nafaqat joriy, balki kelgusi ehtiyojlarini ham qondirishga yo'naltiradi. Orzuning roliga ko'p jihatdan shaxsni birinchi navbatda kelgusi, ehtimoliy ehtiyojlarni shakllantirishga yo'naltiradigan qadriyat ko'rsatmasi sifatida idealning roli ham to'g'ri keladi. Insonning muayn qadriyatlar va ideallar tizimiga ongli maqsadga yo'naltirilganligi ularni voqelikda amalga oshirilishining zaruriy shartidir. Ma'naviy-tarbiyaviy ishlarning bu yo'nalishdagi, jumladan, ulg'ayib kelayotgan avlodga ta'sir o'tkazishdagi rolining kattaligi sababi ham shunga asoslanadi". Shu bilan birga, yuksak ijtimoiy ideallar va intilishlarni shakllantirish yo'lidagi ma'naviy-tarbiyaviy ish shaxsning ichki faolligi bilan qo'llab-quvvatlangandagina samarali bo'ladi.[5.56-59-b.]

Shaxsning ma'naviy tarbiyasida ehtiyojlarning qondirilganligi, qondirilmaganligi kabi muammoga to'g'ri munosabatda bo'lishi ham hal qiluvchi masalalardan biri hisoblanadi. Ehtiyojlarning qondirilishi inson baxtining, jamoadagi do'stona, ijobiy ijtimoiy-psixologik iqlimning asosini tashkil etadi. Biroq, o'rganilayotgan mavzu bir qarashda oson ko'rinsada, umuman sodd emas. Gap shundaki, ehtiyojlarni amalga oshirishda shaxsga qoniqish olib kelmasligi kabi mantiqqa zid paradoks, vaziyat ham bo'lish ehtimoli bor. Bunday hodisalarning sabablari rang-barang hisoblanadi. Agar shaxs ehtiyojlari har qanday bahoda amalga oshiriladigan bo'lsa, ideal va real ehtiyojlar orasida odatda chuqur norozilikning, qoniqarsizlikning manbasi bo'ladigan ulkan farq paydo bo'ladi. Bir qator holatlarda, inson o'zi amalga oshirishga intilayotgan

ehtiyojlarni aniq anglamaydi va bu holat salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. V.Tatarkevichning qarashlarida “ba’zan biz o’zimiz nima xohlayotganimizni bilmaymiz: har bir inson o’zida bo’lmagan, ya’ni o’zi bilmagan, unga noma’lum narsalarga egalik qilishni xohlaydi”[6.15-b] ma’nosidagi jihati va unga to’g’ri munosabatni shakllantirishga e’tibor berilgan.

Shaxs ehtiyojlarining qoniqtirilishi muhimligiga, ya’ni ushbu maqsadni amalga oshirish bilan bog’liq qiyinchiliklarga urg’u berish bilan birga, shaxs mutlaq qoniqqanlik holatida bo’la olmasligini hisobga olish lozim. Chunki, har qanday to’la qondirilganlikda ham insonning faolligini rag’batlantiradigan, shaxsning mustaqil o’sishi manbai bo’ladigan qoniqmaganlik elementlari (jihatlari) bor. Mana shu erda ma’naviy-tarbiyaviy ishning roliga ortiqcha baho berib yubormaslik kerak. Faqat mana shu tarbiyaviy ishlar yordamidagina shaxs aniq yo’nalish va ko’rsatmalar oladi, ushbu masalada aniq, muayyan pozitsiyani tanlay oladi. Ehtiyojlarni qondirish va rivojlantirish tinimsiz jarayon bo’lganligi sababli, qoniqqanlik darajasini, erishilgan ehtiyojlar darajasini mutlaqlashtirish shaxs rivojlanishining to’xtab qolishiga, turg’unlikka tushishiga, o’z ehtiyojlarini jamiyat talablaridan yuqoriroq tutishiga olib kelishi mumkin.

Qisqa qilib aytsak, ushbu muammoni echishda qoniqmaganlikka nisbatan ham, qoniqqanlikka nisbatan ham meyorga rioya qilish lozim, chunki meyorga rioya qilinmasa, shaxs ehtiyojlari tizimining shaklu-shamoyili buziladi, unda yoqimsiz o’zgarishlar sodir bo’ladi. Demak, bizning fikrimizcha, zamonaviy shaxs ehtiyojlari tizimining eng qulay holati (optimumi) qoniqmaganlik va qoniqqanlik darajasining muayyan nisbati bilan xarakterlanadi. Ushbu nisbat, inson shug’ullanadigan faoliyat turlariga, uning individualligi (o’ziga xosligi) va boshqa sabablarga bog’liq bo’lib, shaxsning tarbiyalanganlik saviyasi va mustaqil tarbiyasining maqsadga yo’naltirilgan o’zaro faoliyatining obyekti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шмельев А.Г. Психодиагностика личностных черт. –СПб.: Реч. 2002.-С.34
2. Xudoyberdiyev I.E. “Islom, s’haxs va milliy psixologiya” T.:O’zbekiston 1994. 72 b.
3. Платонов К.К. Структура и развитие личности. –М.: 1996. -254 с.
4. Nishanova Z.T, va bos’hq. Psixologik xizmat. –T.: 2014. -424 b.
5. Мирсаитова А.А. Мотивация достижения успеха личности: психологический аспект/А.А.Мирсаитова// Среднее профессиональное образование. 2010. № 5. С.56-59
6. Татаркевич В. О счастье и совершенстве человека. –М., “Радуга” 1985. –С.15